



**MTT DA BESHTTA MARKAZ ASOSIDA KREATIVLIKNI
RIVOJLANTIRUVCHI METODLARNI QO'LLASH TEXNALOGIYASI**

Panjiyeva Shirin Axmadovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kompusi

“Maktabgacha ta’lim” kafedrası o’qituvchi

shirinpanjiyeva2@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu tezisdá MTT dá Beshta markaz asosida Tayyorlov guruhi bolalarida kreativlikni rivojlantiruvchi metodlarni qo'llash, tayyorlov guruhi yoshidagi bolalarda kreativlikni shakllantirish va metodlar yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativlikni rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirishda rivojlantiruvchi markazlarni to'g'ri tanlash, innovatsion va integratsion yondashuvni yaratish bilan ish olib borishdir. Mazkur uslubiy yondashuv xorijiy tajriba – Finlyandiya, Yaponiya va AQShdagi ilg'or maktabgacha ta'lim modeliga mos holda shakllantirilgan.

Abstract:

This thesis discusses the application of methods for developing creativity in children of the preparatory group based on the Five Centers in MTT, the formation of creativity in children of the preparatory group age group and methods. The aim of improving the methodology for using STEAM technology in the development of creativity in preschool children is to work with the correct selection of development centers, the creation of an innovative and integrative approach. This methodological approach is formed in accordance with foreign experience - advanced preschool education models in Finland, Japan and the USA.

Абстрактный:

В данной диссертации рассматривается применение методов, развивающих креативность у детей подготовительной группы на базе Пяти Центров при МТТ, формирование креативности у детей подготовительной группы возрастной группы, методика. Совершенствование методики использования



STEAM-технологий для развития творческих способностей у детей дошкольного возраста предполагает работу с правильным подбором центров развития и создание инновационного и интегративного подхода. Данный методический подход разработан с учетом зарубежного опыта – передовых моделей дошкольного образования Финляндии, Японии, США.

Kalit so‘zlar: kreativlik, visual texnologiyalar, erkinlik, kuzatish, markazlar, tayyorlov guruhi, ijodiy fikrlash, o‘yin metodlari, qiziqish, intellektual.

Keywords: creativity, visual technologies, freedom, observation, centers, training group, creative thinking, game methods, interest, intellectual.

Ключевые слова: креативность, визуальные технологии, свобода, наблюдательность, центры, тренинговая группа, творческое мышление, игровые методы, интерес, интеллектуальность.

Kirish:

Bugungi kunda ta’lim tizimi bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini ya’ni kreativlik bilan baholanuvchi qobiliyatlarini rivojlantirish birinchi navbatta MTT dan boshlash, ilk qadamlarni bolalarning tashabbuskorlik va ijodiy yondashuvni aniqlash, rivojlantiruvchi metodlarni to‘g‘ri tanlash va rivojlantirishni birinchi o‘ringa qo‘yish lozm. [1]. Shuningdek vizual texnologiyalardan samarali foydalanib, kreativlikni rivojlantiruvchi metodlar ishlab chiqish bugungi davr talabi sifatida o‘z o‘rniga ega.

Metadologiya. Kreativlikni rivojlantirishda quyidagi markazlarda kreativlikni rivojlantiruvchi metodlarni qo‘llash samarali hisoblanadi:

1. Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtiris markazida: O‘yin texnologiyalari metodi bolalarda rolga kirish, ijodiy o‘yinlar va obrazli fikrlashini, ijtimoiylashuvni va muammoli vaziyatlarga yechim topish tushunish, tushuntirish ko‘nikmasini kuchaytiradi
2. Til va nutq markazida: Savol-javob va muammoli topshiriqlar metodi va erkin



[1] Siraj-Blatchford, J., & Sylva, K. (2004). *Developing Creativity in Early Childhood*. Open University Press

3. hikoya tuzish yoki ertak to‘qish – bu metod ham til va nutq markazida amalga oshiriladi bu markazda asosiy e’tibor bolaning so‘z boyligini, mantiqiy fikrlashini va voqealarni ketma-ket bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

4. San’at markazida: – Tasviriy san’at metodlarini qo‘llash bolalarda chizish, ranglar, bo‘yash, rangdan to‘g‘ri foydalanish, atrofga mehr uyg‘otish orqali bolalarning estetik didi, ranglarni his etish, shakllarni anglash va o‘z tasavvurini ifoda etish qobiliyatlarini shakllantirish mumkin.

5. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida: STEM elementlariga asoslangan metodlar qo‘llaniladi [2]. Bu faoliyatlar tayyorlov guruhi bolalarida, oddiy tajribalar, qurilmalarning modellari, konstruktorlar yordamida bajariladigan mashg‘ulotlar bolalarda muammoga amaliy yondashish va eksperiment qilishga qiziqishni oshiradi va kreativligini rivojlantirishga hizmat qiladi.

6. Fan va tabiat markazida: Tabiatni asrab avaylash, boyliklaridan unumli foydalanish uchun, fan va tabiat metodini qo‘llash mumkin. Bunday mashg‘ulotlarga “yer bizning uyimiz”, “bir osmon ostida” o‘yin metodlaridan foydalaniladi.

Muhokama O‘zbekistonda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’limni rivojlantirishga doir bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Ularda kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha vazifalar aniq ko‘rsatildi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish” kabi vazifalar belgilangan. [3]

[2] Yakman, G. (2008). *STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education*. Virginia Polytechnic Institute.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4312-son qarori, 2019-yil 5-aprel, “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.



Natijalar. Ushbu marekazlarda kreativlikni rivojlantiruvchi metodlarni qo'llashni faqat o'yin tariqasida emas balki, xorij tajribalari asosida ham amalga oshirish mumkin. Shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va internet-resurslaridan foydalanishning o'rni bolada erkin fikirlash, qiziqish, kreativ fikirlash va tafakkur dunyosini kengaytirishga xizmat qiladi [4]. Ta'lim jarayonini samaradorligini oshiradi, shuningdek, bolalarning dunyoni teran idrok qilishga, o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa:

MTT da Beshta markaz asosida tayyorlov guruhi bolalarida kreativlikni rivojlantiruvchi metodlarni qo'llash, tayyorlov guruhi bolalarida kreativlikni rivojlantirish uchun pedagog ota-onalar bilan hamkorlikda, innovatsion, metodik jihatdan asoslangan va bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yuqorida keltirilgan metodlar tizimli va izchil markazlarda qo'llanilganda bolalarda bir nechta fanlar yuzasidan ham kreativ tafakkur, o'zini ifodalash, yangicha qarash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. [4] Plowman, L., & Stephen, C. (2005). *Children, Play, and Computers in Pre-school Education*. British Journal of Educational Technology.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmatova, M. (2021). *Maktabgacha ta'lim metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Rasulova, D. (2020). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirish*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Vygotsky, L.S. (2001). *Psixologiya razvitiya rebenka*. Moskva: Pedagogika.
4. Xolboeva, N. (2019). O'yin texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari. *Ilm sarchashmalari jurnali*, №2.